
Farg'ona shahrida keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda

Farg'ona shahar hokimligida ommaviy axborot vositalari xodimlari, jurnalistlar, boshqarmalarning axborot xizmati rahbarlari hamda blogerlar uchun shahar hokimi ishtirokida matbuot anjumani va press-tur o'tkazildi. Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov va sektor rahbarlari ishtirokida o'tkazilgan matbuot anjumanidafuqarolar murojaati bilan ishlashva aholini uy-joy bilan ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berildi. Jurnalist va blogerlar tomonidan mavzuga oid berilgan savollarga sektor rahbarlari tomonidan javoblar berildi. Mazkur masalalar bo'yicha bildirilgan takliflar ham o'rganib chiqildi.

Farg'ona shahridagi "Eko shahar" hududida uy-joylar qurilishi, obodonlashtirish ishlari, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlarini tortish va "Yangi O'zbekiston bog'i" qurilishi uchun 6 trln. 131 mlrd.so'm mablag' sarflanadi. Eko shaharda 204 ta 21 660 xonadonli (85,5 ming aholi) ko'p qavatli uy-joylar qurilishi belgilangan. Yangi massivda 10 ta bog'cha, 6 ta umumta'lim maktabi, poliklinika, masjid hamda sog'lomlashtirish majmuasi bunyod etiladi. 15 ta ma'muriy idoralar qad rostlaydi, "Kichik sanoat zonasi"da esa 17 ta lotlar ajratiladi.

Jurnalist va blogerlar shu kuni Farg'ona shahridagi 70 gektar maydonda bunyod etilayotgan Eko shaharga ham tashrif buyurishdi. Hozirda hududda keng ko'lamli obodonlashtirish, qurilish va ta'mirlash ishlari jadal sur'atlarda davom etmoqda. Press-tur davomida ishtirokchilarga mutaxassislar tomonidan to'liq ma'lumotlar berildi. Shuningdek ishtirokchilar mahallalar infratuzilmasini yaxshilash hamda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik yo'nalishlarida shahrimizda olib borilayotgan ishlar bilan ham yaqindan tanishdilar.

2022-09-27 15:35:11